

**Toshkent Tibbiyot Akademiyasi va 4-chi shahar tugruq kompleks o‘rtasida  
o‘zaro hamkorlik aloqalari bo‘yicha**  
**SHARTNOMA № 2023-12-15**

Toshkent shahri

2023 yil “ 13 ” oktabr

**Toshkent tibbiyot akademiyasi** (keyingi o‘rinlarda - Akademiya) Ustavi asosida ish yurituvchi rektor A.K.Shadmanov bir tomonidan hamda **4-chi shahar tugruq kompleks** Nizomi asosida faoliyat olib boruvchi **bosh shifokori Evstigneev P.L.**, boshqa tomonidan (keyingi o‘rinlarda – Tomonlar) quyidagilar xususida mazkur shartnomani (keyingi o‘rinlarda – Shartnoma) tuzdilar:

**1. Shartnomaning maqsadi**

Shartnomaning maqsadi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 19-sentabrdagi “Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uni rivojlantirish davlat dasturini amalgalashishning asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi PF-3923-sonli, 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari va 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli, 2017-yil 5-may “O‘zbekiston Respublikasida tibbiy ta’lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2956-sonli, 2017-yil 27-iyul “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli qarorlari hamda ta’lim va sog‘liqni saqlash sohasiga oid boshqa qonunchilik hujjatlariga mos holda ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash dasturlari asosida sifatli ta’lim berish bo‘yicha hamkorlikdagi qo‘shma dastur yaratish hisoblanadi.

**2. Shartnomaning predmeti**

Shartnoma predmeti deb, Toshkent shahar, Kichik halqa ko‘chasi, 70a uyda joylashgan Markazda tashkil etilgan bazada Akademianing akusherlik va gynekologuya kafedrasini (keyingi o‘rinlarda – Kafedra) xodimlari tomonidan mavjud ta’lim dasturlari bo‘yicha hamkorlikda o‘quv-ta’lim va ilmiy faoliyatni olib borish, aynan bakalavr, magistr, klinik ordinatori va doktorantlarni tayyorlash hisoblanadi.

Hamkorlik predmeti deb, qo‘shma ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish, qo‘shma ilmiy tadbirlar tashkil etish, ilmiy maqolalar chop etish, o‘zaro ilmiy ishlar va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish hisoblanadi.

**3. Hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirish shakllari**

3.1. Mazkur shartnoma doirasida Tomonlar quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni ko‘zda tutadilar:

- mavjud bo‘lgan ta’lim dasturlari bo‘yicha Akademiyada bakalavr, magistr, klinik ordinatori va doktorantlarni tayyorlash uchun o‘quv amaliyotlarini o‘tkazish;
- mamlakatimizga yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash yuzasidan Kafedra va Markazning soha yo‘nalishlari bo‘yicha amaliy faoliyat olib borish;
- Akademiya va Markazning o‘zaro samarali hamkorligini yo‘lga qo‘yish;
- Markazning malakali mutaxassislari erishgan yutuqlarni Akademiya professor-o‘qituvchilari tomonidan tizimli o‘rganib borilishini tashkil etish maqsadida malaka oshirish va tajriba almashuvini joriy qilish;
- rivojlangan xorijiy davlatlarning tibbiyot sohasidagi eng ilg‘or tajribalarini o‘rgangan hamda Markazning mutaxassislarga bo‘lgan talabidan kelib chiqqan holda

- Tug‘ruq kompleksining malakali mutaxassislari erishgan yutuqlarni Akademiya professor-o‘qituvchilarini tomonidan tizimli o‘rganib borilishini tashkil etish maqsadida malaka oshirish va tajriba almashuvini joriy qilish;
- rivojlangan xorijiy davlatlarning tibbiyot sohasidagi eng ilg‘or tajribalarini o‘rgangan hamda Tug‘ruq kompleksining mutaxassislarga bo‘lgan talabidan kelib chiqqan holda o‘quv rejalarini, fan dasturlari, o‘quv adabiyotlari shu jumladan, o‘quv-metodik komplekslarni xalqaro standartlar asosida zamonaviy, mutlaqo yangi talablar asosida ishlab chiqilishi va bosqichma-bosqich joriy etilishini tashkil qilishni o‘zaro hamkorlikda amalga oshirish;
- Akademianing ta’lim yo‘nalishida zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini hamkorlikda bajarish va tatbiq etish;
- hamkorlikda ilmiy maqolalar tayyorlash va ularni nashr qilish;
- hamkorlikda seminarlar o‘tkazish;
- Tug‘ruq kompleksida Akademiya kafedralari bazalarini ochish;
- Tug‘ruq kompleksida talabalar amaliyotini tashkil etish hamda bo‘sh ish o‘rinlariga bitiruvchilarini ishga joylashtirish choralarini ko‘rish;
- Akademiya professor-o‘qituvchilariga Tug‘ruq kompleksida amaliy tadqiqotlar o‘tkazishiga sharoit yaratib berish;
- hamkorlikda Tug‘ruq kompleksining istiqbolli rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish;
- Akademiya professor-o‘qituvchilarini tomonidan amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirishda hamkorlik qilish.

#### **4. Muvaffaqiyatli hamkorlikdagi faoliyatni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar**

4.1 O‘quv-ta’lim va amaliyot tadbirlarini tashkil etish, ishlab chiqish va amalga oshirishda tomonlarning hamkorligi:

- Tug‘ruq kompleksida qo‘llaniladigan zamonaviy tibbiy texnologiyalar, uskunalar va jihozlarni o‘rganish;
- amaliy va uslubiy ma’lumotlarni o‘zaro almashinuvini olib borish.

#### **5. Ta’lim va sertifikatsiyalashni o‘tkazish shakllari**

5.1. Hamkorlikda amalga oshirilayotgan o‘quv-amaliyotdagi faoliyat, bakalavriat, magistratura, klinik ordinaturada va doktoranturada tahsil olayotgan talabalar, klinik ordinotorlar va izlanuvchilar uchun seminarlar, amaliy mashg‘ulotlar, mahorat darslari va ma’ruzalarini o‘tkazish shaklida amalga oshiriladi.

5.2. Hamkorlikdagi ilmiy-amaliy faoliyat o‘quv-amaliyot va ilmiy-tadqiqot ishlarini o‘tkazish, maqolalarni chop etish shaklida bajariladi.

#### **6. Shartnomani bajaruvchi va bevosita ishtirokchilari**

6.1. Mazkur shartnoma shartlarini bajarishda Akademianing Kafedra xodimlari, shuningdek zaruriyat bo‘lganda boshqa kafedra va bo‘limlar xodimlari hamda o‘quv-ta’lim faoliyatini tashkil etish, o‘tkazish va ta’minlashga bevosita aloqasi bo‘lgan boshqa shaxslar ishtirok etadi.

6.2. Mazkur shartnomani amalga oshirishda Tug‘ruq kompleksi tomonidan manfaatdor bo‘lgan davolash-tashxislash bo‘linmalari va boshqa tibbiyot xodimlari, shuningdek davolash-profilaktik faoliyatni tashkil etish va ta’minlashga aloqador bo‘lgan ma’muriy-boshqaruv xodimlari bevosita ishtirok etadi.

6.3. Akademiya va Tug‘ruq kompleksining rahbariyati manfaatdor xodimlarni barcha zarur bo‘lgan ma’lumotlar bilan ta’minalash va ular tomonidan ushbu shartnomaning talablari hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etish majburiyatini oladi.

6.4. Tomonlar ginekologik kasalliklarini o‘rganish yuzasidan hamkorlikda ilmiy tadqiqotlarni olib borish majburiyatini oladilar.

6.5. Hamkorlik doirasida Tomonlar qo‘yilgan maqsadga erishish uchun va amaliyot ishlarini o‘rganish hamda bajarish yuzasidan zaruriy materiallarni yig‘ish bo‘yicha kelishuv pozitsiyasini ishlab chiqishga mas’uldirlar.

6.6. Tomonlar hamkorlikda izlanish olib borayotgan mavzu bo‘yicha birgalikda o‘quv adabiyotlari (shu jumadan hammualliflikda darslik, o‘quv qo‘llanma, metodik qo‘llanma, elektron darslik) va maqolalar tayyorlash hamda nashrdan chiqarish majburiyatini oladilar.

6.7. Tomonlar hammualliflikdagi o‘quv-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlar natijalarini amaliyotga tatbiq etadilar.

6.8. Shifokor siri va xizmat ma’lumotlarining maxfiyligini ta’minlaydilar, oshkora qilmaslik talablariga qat’iy rioya etadilar.

## **7. Akademiya va Kafedraning huquq va majburiyatları:**

7.1. Akademiya hamkorlikdagi o‘quv-ta’lim va ilmiy-amaliyot faoliyatini tashkil etish va o‘tkazishda ishtiroy etadi.

7.2. Akademiya hamkorlikdagi o‘quv-ta’lim va amaliy faoliyatni amalga oshirishda Kafedra va Tug‘ruq kompleksi xodimlari, shuningdek ta’lim oluvchilarni zaruriy resurslar (insonlarga bog‘liq bo‘lgan, moddiy-texnik, axborot va boshqalar) bilan ta’minlaydi.

7.3. Kafedra o‘z xodimlari va talabalar tomonidan Tug‘ruq kompleksining barcha talablari va ichki reglamentlariga (tartibi), xizmat va tibbiy ma’lumotlarning maxfiylik talablariga rioya etish majburiyatini oladi.

### **7.4. Akademianing majburiyatları:**

- hamkorlikda ginekologik kasalliklari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib boradi;
- ilmiy izlanishlar natijalarini tahlil qilib, ular bo‘yicha to‘plangan hujjatlarni nashrdan chiqarishga tayyorlaydi;

- hamkorlikda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan to‘plangan ma’lumotlar bo‘yicha maqola, darslik, o‘quv qo‘llanma, tezis, monografiyalar yozish va ularni Tug‘ruq kompleksi bilan hammualliflikda nashrdan chiqarish, Tug‘ruq kompleksi bilan birgalikda ilmiy-amaliy konferensiya, syezd va seminarlarda ma’ruzalar bilan chiqish qilish;

- hamkorlikdagi tibbiy, o‘quv-ta’lim va amaliy faoliyatni tashkil etish va o‘tkazishda amaldagi qonunchilikda belgilangan mualliflik huquqlarini himoya qilish talablari va etika me’yorlariga rioya etish;

- shifokor siri va xizmat ma’lumotlarining maxfiyligini oshkor etmaslik talablariga qat’iy rioya etish;

- mazkur shartnomaning shartlarini to‘liq va samarali bajarish maqsadida mas’ul xodimlarni tayinlaydilar.

## **8. Tug‘ruq kompleksining huquq va majburiyatları:**

8.1. Tug‘ruq kompleksi hamkorlikdagi o‘quv-ta’lim va ilmiy-amaliy faoliyatini tashkil etish va o‘tkazishda ishtiroy etadi.

8.2. Hamkorlikdagi tibbiy, o‘quv-ta’lim va ilmiy faoliyatni olib borishda Tug‘ruq kompleksi:

- o‘quv dasturiga mos holda Akademiyada faoliyat yuritib kelayotgan va ta’lim olayotganlarga Tug‘ruq kompleksidagi tibbiyot texnikalaridan foydalanishga hamda davolash jarayonlarida ishtirok etishga sharoit yaratadi;

- Tug‘ruq kompleksiga oid yangiliklar, rivojlantirish istiqbollari, ta’lim mazmunini takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va kelgusidagi vazifalarni belgilab olish yuzasidan Akademiya professor-o‘qituvchilari, ilmiy xodimlari, doktorantlari, klinik ordinator va talabalari bilan uchrashuvlar o‘tkazib borishga sharoit yaratadi;

- Akademiya professor-o‘qituvchilariga Tug‘ruq kompleksida amaliy tadqiqotlar o‘tkazishga sharoit yaratadi;

- ta’tillar davrida Akademiyada tahsil olayotgan talaba va klinik-ordinatorlarga Tug‘ruq kompleksida ishlab chiqarish amaliyotini olib borishga sharoit yaratadi;

- ta’lim oluvchilar tomonidan yuqorida ko‘rsatilgan talablarga rioya etish ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- mazkur shartnomaning shartlarini to‘liq va samarali bajarish maqsadida mas’ul xodimlarni tayinlaydi.

8.3. Tug‘ruq kompleksi hamkorlikdagi tibbiy, o‘quv-ta’lim va amaliy faoliyatni tashkil etish va o‘tkazishda Tug‘ruq kompleksi xodimlari tomonidan amaldagi qonunchilikda belgilangan mualliflik huquqlarini himoya qilish talablari va etika me’yorlariga rioya etilishini o‘z zimmasiga oladi.

## **9. Tashkiliy-moliyaviy o‘zaro munosabatlar**

9.1. Mazkur Shartnama tashkiliy-huquqiy majburiyatlarni nazarda tutadi va Tomonlarning moliyaviy majburiyatlarini ko‘zda tutmaydi.

9.2. Hamkorlikdagi tadbirlar va majburiyatlarni bajarishda moliyaviy majburiyatlar yuzaga kelganda ushbu moliyaviy munosabatlar Tomonlarning o‘zaro kelishuvi bo‘yicha alohida shartnomalarda aks ettiriladi.

9.3. Qo‘shma o‘quv-ta’lim va ilmiy-amaliy tadbirlarni o‘tkazishda mazkur jarayonlarda ishtirok etayotgan Kafedra xodimlari Tug‘ruq kompleksining tegishli lavozimlariga qabul qilinishlari mumkin. Tug‘ruq kompleksi xodimlari esa Kafedra professor-o‘qituvchilari va ilmiy tarkibiga o‘rindoshlik asosida Tomonlarning o‘zaro kelishuvi bo‘yicha lavozimlariga qabul qilishi mumkin.

9.4. Hamkorlikdagi ilmiy-tadqiqotlar natijalari shartnama doirasida qo‘shma yutuqlar deb hisoblanadi va nashrlarda taraflar nomidan rasmiylashtiriladi (qo‘srimcha tadqiqotlar taraflaridan birining alohida nashr etilishiga faqat ikkinchi tomonning roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi).

9.5. Zarur hollarda Tomonlar nomidan birgalikda da’vo qilingan ixtirolargacha buyurtma rasmiylashtiriladi.

## **10. Uchinchi tomonning ishtiroki**

Mazkur shartnama bo‘yicha o‘quv va/yoki amaliy jarayonnni texnik va tashkiliy-texnik ta’midotidan tashqari, hamkorlikdagi o‘quv-ta’lim va ilmiy faoliyatni amalga oshirishda uchinchi tomonlarning ishtirokini ko‘zda tutmaydi.

## **11. Shartnama ishtirokchilarining javobgarligi**

11.1. Tomonlardan birining zimmasiga olgan majburiyatni bajarmaslik holatlarida, shartni bajarish lozim bo‘lgan sanadan 10 kundan kam bo‘lmanan muddatda,

oldindan ko‘rolmagan yoki uning oldini olish imkoniyati mavjud bo‘lmaganida, Tomonlar ushbu shartnama bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaslik bo‘yicha javobgarlikdan qisman yoki to‘liq ozod qilinadilar

12.2. Majburiyatni bajarmaslikda favqulodda holatlarga ishora qiluvchi Tomon boshqa Tomonni bunday vaziyatlarning boshlanishi haqida darhol xabardor qilishi lozim.

12.3. Agarda mazkur shartnama bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaslik holati, yengib bo‘lmaydigan kuchlar bilan bog‘liq holda 6 oydan ko‘proq davom etsa, Tomonlardan biri ikkinchi Tomonni bu to‘g‘risida xabardor qilib bir taraflama mazkur shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

### 13. Shartnomani amal qilish muddati

13.1. Mazkur shartnama imzolangan vaqtidan boshlab kuchga ega bo‘ladi.

13.2. Ushbu shartnomani amal qilish muddati 2026-yil 31-dekabrgacha davom etadi.

13.3. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilinishi bir Tomonning tashabbusi bilan amalga oshirilishi mumkin, bunda, boshqa Tomonga bu to‘g‘risida shartnomani bekor qilinishidan 2 oy oldin xabar berilishi kerak. Mazkur muddatni tugashi bilan har ikki Tomonning kelishuviga ko‘ra shartnama bekor qilingan deb hisoblanadi.


13.4. Mazkur Shartnama ikki nusxada tuzildi. Ikkala nusxa aynan bir xil va teng yuridik kuchga ega.


### 14. Tomonlarning yuridik manzillari


#### Toshkent tibbiyot akademiyasi


100109, Toshkent sh., Farobiy ko‘chasi, 2-uy.

Tel.: +99878 150-78-25

Rektor  A.K. Shadmanov

Davolash ishlari bo‘yicha  
prorektor  M.Sh. Karimov

Marketing va talabalar amaliyot bo‘limi  
boshlig‘i  D.K. Najmutdinova

Akusherlik va ginekologiya  
kafedrasi mudiri  S.M. Yusupova

#### 4-chi shahar tugruq kompleks

100047, Toshkent shahar, Mirobod tumani,  
Mehrjon kuchasi 33,



Bosh shifokor

P.L. Evstigneев